



NQAAE



KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARI

QABUL PARAMETRLARI

VA ULARNING SAMARADORLIGI

AXBOROT-TAHLILY MA'LUMOT

www.nqaae.uz

MUNDARIJA

I-BOB	KIRISH	04
II-BOB	KASBIY TA'LIM TIZIMIDA QABUL PARAMETRLARINING AMALDAGI HOLATI VA TENDENSIYALARI	07
	Umumiy qabul ko'rsatkichlari tahlili	07
	Qabul parametrlari kasb va mutaxassisliklar kesimidagi tahlili	08
	Sohalar kesimida tahlili	10
	Qabul parametrlari hududlar kesimidagi tahlili	13
	Dual ta'lim shakli bo'yicha qabul tahlili	15
	Qabul ko'rsatkichlarining 9 va 11-sinf bitiruvchilari kesimidagi tahlili	16
	Ta'lim shakllari kesimida tahlil	18
	Qabul ko'rsatkichlarining davlat granti va kontrakt asosidagi tahlili	19
	Qabul ko'rsatkichlari bo'yicha asosiy tendensiyalar va tizimli muammolar	20
III-BOB	QABUL PARAMETRLARINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA TAKLIF VA TAVSIYALAR	22
	Qabul parametrlarini mehnat bozori ehtiyojlari asosida shakllantirish	22
	Qabul parametrlarini prognozlash va raqamli tahlil qilish	23
	Ta'lim yo'nalishlari va ta'lim shakllarini qayta ko'rib chiqish	23
	Milliy reyting natijalaridan foydalanish	24
	XULOSA	25
	1-ILOVA	62

Mazkur tahlil kasbiy ta'lim tizimida qabul parametrlarining shakllantirilishi, taqsimlanishi va bajarilish samaradorligini baholashga qaratilgan bo'lib, unda qabul ko'rsatkichlarining mehnat bozori ehtiyojlari, hududiy iqtisodiy talablar hamda davlat buyurtmasi maqsadlariga mosligi tahlil qilingan.

Tahlilning asosiy maqsadi qabul parametrlarini shakllantirish va amalga oshirish jarayonida kuzatilayotgan tendensiyalar hamda tizimli muammolarni aniqlash, shuningdek, ularni mehnat bozori ehtiyojlari asosida takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tahlil natijalari davlat buyurtmalarini shakllantirish, hududiy kadrlar ehtiyojini prognoz qilish, qabul parametrlarini optimallashtirish hamda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tahliliy asos bo'lib xizmat qilishi nazarda tutilmoqda.

Kasbiy ta'lim tashkilotlariga (bundan buyon matnda texnikum deb yuritiladi) o'qishga qabul qilishga oid jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining professional ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 715-son qarori bilan belgilangan.

Mazkur qarorda texnikumlarga qabul qilish tartibi, qabul parametrlarini shakllantirish va tasdiqlash mexanizmlari hamda qabul jarayonini tashkil etishga oid asosiy talablar belgilangan.

Zamonaviy sharoitda qabul parametrlari nafaqat ta'lim tashkilotlariga ajratiladigan o'quv o'rinlari sonini belgilaydi, balki iqtisodiyot tarmoqlarining kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, hududiy mehnat bozorini muvozanatlashtirish va davlatning kadrlar siyosati maqsadlariga erishishning muhim vositasi hisoblanadi.

Ayniqsa, mehnat bozoriga har yili o'rtacha 900 ming nafar yoshlar kirib kelayotgan sharoitda qabul parametrlarini samarali rejalashtirish iqtisodiyot tarmoqlarini malakali kadrlar bilan ta'minlash va yoshlar bandligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.¹

Shu sababli, qabul parametrlarining amalga oshirilish darajasi ta'lim tashkilotlarining jozibadorligi, ta'lim dasturlarining raqobatbardoshligi hamda ularning mehnat bozori ehtiyojlariga mosligini baholovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi va uning natijalari Milliy reytingda aks ettiriladi.

¹<https://siat.stat.uz/reports-filed/3494/table-data>

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktyabrdagi “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-316-son qaroriga muvofiq, texnikumlar milliy reyting natijalari asosida rag‘batlantirish mexanizmi joriy etilgan.

Bunga ko‘ra, milliy reytingda eng yuqori natija ko‘rsatgan 50 ta texnikumning har biri bazaviy hisoblash miqdorining 3 000 baravari — joriy hisob-kitoblar bo‘yicha 1236 mln so‘m miqdorida rag‘batlantirilishi belgilangan.

Qamrov

50 ta texnikum



milliy reytingda eng yuqori natija ko‘rsatgan

Rag‘batlantirish miqdori

3 000 barobar BHM



alohida har bir texnikum uchun

Rag‘batlantirish mexanizmi

01. Milliy reyting natijalari aniqlanadi
02. Eng yuqori natija ko‘rsatgan 50 ta texnikum saralanadi
03. Har bir texnikum BHM ning 3000 barobari miqdorida rag‘batlantiriladi

Ajratilgan mablag‘dan foydalanish yo‘nalishlari



Moddiy-texnika bazasini mustahkamlash

zarur jihozlarni xarid qilish, laboratoriya va ustaxonalar barpo etish



Rahbar va xodimlarni moddiy rag‘batlantirish

ustama to‘lovlar, malaka oshirish va tajriba almashish uchun xorijga yuborish

Mazkur mexanizm texnikumlarni qabul ko'satkichlari, ta'lim sifati va bitiruvchilar bandligi bo'yicha yuqori natijalarga erishishga undash bilan bir qatorda, texnikumlar o'rtasida sog'lom institutsional raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy reytingning huquqiy va metodologik asoslari O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish va kasbiy ta'lim tashkilotlarini rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2026 yil 15 aprelda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3816) hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tahlil natijalari asosida texnikumlarning qabul parametrlarini bajarish samaradorligi baholanadi hamda Milliy reyting doirasida mazkur indikator bo'yicha tegishli ball shakllantiriladi.

Tahlilda foydalanilgan qabul kvotalari, amalda qabul qilingan o'quvchilar soni, bilim sohalari, ta'lim sohalari, yo'nalishlar, kasb va mutaxassisliklar, to'lov shakllari va hududlar kesimidagi ma'lumotlar Kasbiy ta'lim agentligi tomonidan taqdim etilgan rasmiy ma'lumotlar asosida shakllantirildi.

Hisoblash metodikasi

Qabul parametrlarining bajarilish darajasi texnikum bo'yicha jami qabul qilingan o'quvchilar sonini umumiy qabul rejasiga nisbatlash orqali emas, balki har bir texnikumdagi kasb va mutaxassisliklar kesimida tasdiqlangan qabul kvotalarining amalda bajarilish darajasini alohida hisoblash asosida aniqlandi va ushbu natijalardan kelib chiqib texnikumning umumiy ulush ko'rsatkichi shakllantirildi.

KASBIY TA'LIM TIZIMIDA QABUL PARAMETRLARINING AMALDAGI HOLATI VA TENDENSIYALARI

01 Umumiy qabul ko'rsatkichlari tahlili

Qabul parametrlarining tahlili kasbiy ta'lim tizimida mehnat bozori ehtiyojlari, yoshlarning ta'lim yo'nalishlariga bo'lgan talabi hamda davlat buyurtmasi o'rtasidagi muvofiqlikni baholash imkonini beradi.

Jumladan, tahlil natijalariga ko'ra, 2024/2025 o'quv yilida texnikumlar uchun 201 203 ta qabul kvotasi tasdiqlangan bo'lib, shundan 156 528 nafar abituriyent o'qishga qabul qilingan.

Natijada qabul rejasining bajarilish darajasi 76 foizni tashkil etgan. Bu esa har to'rtta qabul o'rnidan bittasi to'ldirilmaganini ko'rsatadi.

2025/2026 o'quv yilida esa texnikumlarga jami 287 301 ta qabul kvotasi ajratilgan bo'lib, shundan 249 130 nafar abituriyent o'qishga qabul qilingan. Bu qabul rejasining 86 foiz bajarilganini ko'rsatadi.

Shu tariqa, qabul rejasining bajarilish darajasi 76 foizdan 86 foizga yetgan. Biroq, qabul ko'rsatkichlaridagi ijobiy dinamikaga qaramasdan, kasb va mutaxassisliklar, ta'lim shakllari va hududlar kesimida sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda.

Qabul parametrlarining umumiy tahlili qabul rejasining bajarilish darajasi yaxshilanganiga qaramasdan, ayrim kasb va mutaxassisliklar hamda hududlar kesimida qabul parametrlarida sezilarli tafovutlar saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda.

So'nggi 2 yillik qabul ko'rsatkich ulushi (o'quvchilar kesimida, nafar)



Bu esa qabul parametrlarini shakllantirishda mehnat bozori ehtiyojlari, hududiy xususiyatlar va abituriyentlar tanlovini yanada chuqurroq hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

02 Qabul parametrlarining kasb va mutaxassisliklar kesimidagi tahlili

Qabul parametrlarini tahlil qilish kasbiy ta'lim tizimida qaysi kasb va mutaxassisliklarga talab yuqori ekanligini, shuningdek qabul parametrlari va mehnat bozori ehtiyojlari o'rtasidagi ehtimoliy nomutanosibliklarni aniqlash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur ko'rsatkichlar iqtisodiyot tarmoqlarining kadrlarga bo'lgan ehtiyoji hamda kasbiy ta'lim tizimida shakllanayotgan asosiy tendensiyalarni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnikumlardagi kasb va mutaxassisliklar soni 450 tadan ortiq bo'lishiga qaramasdan, qabulning asosiy qismi cheklangan sondagi kasb va mutaxassisliklarda jamlangan. Jumladan, eng yuqori talabga ega bo'lgan 7 ta kasb va mutaxassislik ulushiga umumiy qabulning 49 foizi to'g'ri kelgan.

Xususan, "Avtomobillarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish" kasbi umumiy qabulning 20 foizini tashkil etgan. Shuningdek, "Tikuvchi" – 7 foiz, "Hamshiralik ishi" – 6,2 foiz, "Traktorchi-mashinist" – 5 foiz, "Davolash ishi" – 4,1 foiz, "Kompyuter grafikasi va dizayn operatori" – 3,8 foiz va "Raqamli axborotlarni qayta ishlash ustasi" – 3,4 foizni tashkil etgan.



Mazkur holat abituriyentlar talabi ayrim kasb va mutaxassisliklarda yuqori darajada konsentratsiyalashayotganini ko'rsatadi hamda qabul parametrlarini shakllantirishda mehnat bozori ehtiyojlari bilan bir qatorda yoshlarning ta'lim kasb va mutaxassisliklarga bo'lgan qiziqishini ham hisobga olish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.


Tahlil jarayonida ayrim kasb va mutaxassisliklar bo'yicha qabul parametrlari belgilangan kvotalarga nisbatan 300–550 foizgacha ortiqcha shakllangani kuzatildi.

Shuningdek, ayrim kasb va mutaxassisliklarda mutlaqo teskari holat ham kuzatildi. Ya'ni, qator kasb va mutaxassisliklar bo'yicha tasdiqlangan qabul kvotalari mavjud bo'lishiga qaramasdan, qabul parametrlari nol darajani tashkil etgan holatlar aniqlandi.

Shu bilan birga, kasb va mutaxassisliklar nomlarining zamonaviy, tushunarli va mehnat bozorida qo'llanilayotgan atamalarga mos bo'lishi ham abituriyentlar tanloviga


Kasblar va mutaxassisliklar kesimida qabul ko'rsatkich ulushi

	Avtomobillarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish	20%
	Tikuvchi	7%
	Hamshiralik ishi	6%
	Traktorchi-mashinist	5%
	Davolash ishi	4%
	Kompyuter grafikasi va dizayn operatori	4%
	Raqamli axborotlarni qayta ishlash ustasi	3%
	Boshqa yo'nalishlar	51%



Mazkur holatlar ayrim kasb va mutaxassisliklar bo'yicha qabul parametrlari hamda abituriyentlar talabi o'rtasida muayyan nomutanosibliklar mavjudligini ko'rsatadi.

Kasb va mutaxassisliklar kesimida talab ko'rsatkichlari



Bu esa qabul parametrlarini shakllantirishda mehnat bozori ehtiyojlari, hududiy xususiyatlar va abituriyentlar tanlovini muntazam qayta baholab borish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur holatni baholashda texnikumlarda o'quv guruhlarini shakllantirishga oid amaldagi talablarni ham inobatga olish zarur. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi 466-son qaroriga muvofiq, professional ta'lim tashkilotlarida guruhlar, qoida tariqasida, kamida 12 nafar va ko'pi bilan 30 nafar o'quvchidan tashkil etiladi.

Ayrim hollarda buyurtmachilar takliflari hamda o'qitish xarajatlarining qoplanishidan kelib chiqib, guruhdagi o'quvchilar soni 12 nafardan kam bo'lishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Shu sababli qabul parametrlarining nol darajasi yoki juda past darajada shakllanishi har doim ham mazkur kasb va mutaxassisliklarga talab mavjud emasligini anglatmaydi. Amalda ayrim kasb va mutaxassisliklar bo'yicha tavsiya etilganlar soni guruh tashkil etish uchun yetarli bo'lmagan hollarda, o'quvchilarning roziligi asosida ular boshqa yaqin yo'nalishlarga o'tkazilgan.

Yuqorida keltirilgan holatlar kasb va mutaxassisliklari kesimidagi qabul parametrlarini belgilashda tasdiqlangan reja va tavsiya etilganlar soni bilan bir qatorda, guruh shakllantirish imkoniyati, minimal to'ldirilish me'yori, o'quvchilar tanlovi, mehnat bozori ehtiyojlari va o'qitish xarajatlarining samaradorligini kompleks inobatga olish zarurligini ko'rsatadi.

Bu esa kam talabli kasb va mutaxassisliklarni qayta ko'rib chiqish va qabul parametrlarini real ehtiyojga moslashtirishni taqozo etadi.

03 Qabul parametrlarining sohalar kesimidagi tahlili


Qabul parametrlarining 10 ta bilim sohasi va 22 ta ta'lim sohasi kesimidagi tahlili sohalar o'rtasida talab va qabul parametrlarining bajarilish darajasi bo'yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi.

Xususan, bilim sohasi kesimida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida 34 245 ta kvotaga 40 788 nafar o'quvchi qabul qilingan bo'lib, bu esa qabul parametrlarining 119,1 foizga bajarilganligini ko'rsatadi.


Shuningdek, muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalarida – 88,5 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasida – 85,2 foiz, qishloq, o'rmon, baliqchilik xo'jaligi va veterinariya sohasida – 85,1 foiz, xizmatlar sohasida – 75,6 foiz hamda ta'lim sohasida – 73,8 foizni tashkil etgan.

Biznes, boshqaruv va huquq sohasida esa – 47,2 foiz, san’at va gumanitar fanlar sohasida – 43,7 foiz, tabiiy fanlar, matematika va statistika sohasida – 26,7 foiz hamda ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot sohasida – 22,3 foiz qayd etilgan.

Bilim sohalari kesimida qabul ko‘rsatkichi (foizda)



Ta'lim sohalari bo'yicha taqsimot



Bu esa kam talabli yo'nalishlarni qayta ko'rib chiqish va qabul parametrlarini real ehtiyojga moslashtirishni taqozo etadi.

Ta'lim sohalari kesimida eng yuqori qabul muhandislik ishi ta'lim sohasiga to'g'ri kelib, ushbu sohaga 76 584 nafar o'quvchi qabul qilingan.

Bu jami qabulning 30,7 foizini tashkil etadi. Keyingi o'rinlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari 40 788 nafar (16,4 foiz), sog'liqni saqlash 34 245 nafar (13,7 foiz), ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari 32 407 nafar (13,0 foiz) hamda qishloq xo'jaligi 24 842 nafar (10,0 foiz) ta'lim sohasida qayd etilgan.

Umuman olganda, qabulning asosiy qismi iqtisodiyot va mehnat bozori uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sohalarga yo'naltirilgan. Xususan, muhandislik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi ta'lim sohalari jami qabulning 83,8 foizini tashkil etmoqda.

Bu kasbiy ta'lim tizimida texnik, texnologik va amaliy yo'nalishlarga talab yuqori darajada shakllanganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ayrim sohalarda qabul ulushi juda past darajada qolmoqda. Jumladan, baliq xo'jaligi bo'yicha 90 nafar, transport xizmatlari bo'yicha 17 nafar, fizika va tabiiy fanlar bo'yicha 15 nafar o'quvchi qabul qilingan.

Ushbu sohalarning umumiy qabuldagi ulushi 0,1 foizdan kam bo'lib, mazkur sohalarga bo'lgan talabning pastligi yoki qabul parametrlarining cheklangan hajmda shakllanganini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari qabulning asosiy qismi cheklangan sondagi ta'lim sohasida jamlanayotganini ko'rsatmoqda. Bu esa qabul parametrlarini shakllantirishda yuqori talabga ega sohalari va qabul ko'rsatkichlari past bo'lgan sohalari bo'yicha ehtiyojlarni muntazam qayta baholab borish zarurligini ko'rsatadi.

04 Qabul parametrlarining hududlar kesimidagi tahlili

Qabul parametrlarini hududlar kesimida tahlil qilish kasbiy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash jarayonlarining hududiy iqtisodiy ehtiyojlar, demografik omillar va mehnat bozori tendensiyalari bilan qay darajada muvofiqlashtirilganini baholash imkonini beradi.


Tahlil natijalari respublika hududlari o'rtasida qabul parametrlarining bajarilish darajasi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, respublika bo'yicha o'rtacha qabul ko'rsatkichi 84,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, hududlar kesimida mazkur ko'rsatkich 65 foizdan 100 foizgacha bo'lgan oraliqda shakllangan.

Eng yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona va Samarqand viloyatlarida qayd etilgan bo'lib, mazkur hududlarda qabul rejasi to'liq bajarilgan. Shuningdek, Buxoro va Andijon viloyatlarida qabul ko'rsatkichi 96 foizni, Jizzax viloyatida 93 foizni hamda Namangan viloyatida 92 foizni tashkil etgan.

Shu bilan birga, qator hududlarda qabul ko'rsatkichlari respublika o'rtacha darajasidan sezilarli past shakllangan. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida qabul rejasi bajarilishi 65 foizni, Xorazm viloyati va Toshkent shahrida 70 foizni, Navoiy viloyatida 72 foizni tashkil etgan.

Tahlil natijalari hududlar o'rtasida qabul parametrlari bo'yicha 35 foiz punktgacha farq mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu esa qabul parametrlarini shakllantirishda hududiy demografik xususiyatlar, iqtisodiyot tarmoqlarining kadrlarga bo'lgan ehtiyoji, mehnat bozori holati hamda abituriyentlar tanlovi muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida qabul ko'rsatkich ulushi, foizda



05 Dual ta'lim shakli bo'yicha qabul tahlili

Dual ta'lim shakli mehnat bozori ehtiyojlari va ta'lim jarayoni o'rtasidagi integratsiyani ta'minlashning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur ta'lim shakli bo'yicha qabul parametrlari ish beruvchilar ishtirokining amaliy natijalarini baholash imkonini beradi.


Tahlil natijalariga ko'ra, 2025/2026 o'quv yili uchun jami 287 301 ta qabul kvotasi shakllantirilgan bo'lib, shundan 59 680 tasi dual ta'lim shakli uchun ajratilgan.

Bu umumiy qabul parametrlarining 21 foizini tashkil etib, dual ta'lim ulushini kengaytirish bo'yicha belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga muvofiq shakllantirilgan.

Biroq, amalda dual ta'lim shakli bo'yicha 41 080 nafar o'quvchi qabul qilingan bo'lib, uning jami qabul qilingan o'quvchilar tarkibidagi ulushi 16,5 foizni tashkil etgan. Natijada dual ta'lim bo'yicha ajratilgan qabul parametrlarining 68,8 foizi bajarilgan.

Dual ta'lim bo'yicha qabul parametrlarining rejaga nisbatan past shakllanishi bir qator omillar bilan izohlanishi mumkin.

Dual ta'lim: kvota, amaldagi qabul va maqsad



Dual ta'lim qabuli: maqsadli ko'rsatkich va amaldagi natija

2026 - yil uchun maqsad



Xususan, ayrim hududlarda ish beruvchilar ishtirokining cheklanganligi, amaliy ta'limni tashkil etish imkoniyatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda texnikumlar va korxonalar o'rtasidagi hamkorlikning turlicha shakllangani mazkur parametrlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu bilan birga, dual ta'lim kvotalarining asosiy qismi texnik xizmat ko'rsatish, sanoat-ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qishloq va suv xo'jaligi hamda maktabgacha ta'lim yo'nalishlarida jamlangani kuzatildi. Bu holat dual ta'lim ko'proq amaliy ko'nikma talab etiladigan kasb va mutaxassisliklarda qo'llanilayotganini hamda mazkur yo'nalishlarda ish beruvchilar bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlash imkoniyati yuqoriroq ekanini ko'rsatadi.

06 Qabul parametrlarining 9 va 11-sinf bitiruvchilari kesimidagi tahlili

9 va 11-sinf bitiruvchilari kesimidagi qabul parametrlari kasbiy ta'lim tizimining yoshlarni qamrab olish darajasi hamda ta'lim yo'nalishlaridagi o'rnini baholash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktyabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son [qaroriga](#) muvofiq, 9-sinf bitiruvchilarini kasbiy ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichini 2025-yilda 29 foizga, 2026-yilda esa 34 foizga yetkazish belgilangan.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2020–2024-yillarda 9-sinf bitiruvchilari soni o'rtacha 501 ming nafarni tashkil etgan. 2025/2026 o'quv yilida 9-sinf negizida amalda 161 225 nafar o'quvchi qabul qilingan bo'lib, bu o'rtacha bitiruvchilar soniga nisbatan 32,2 foiz qamrovni tashkil etgan.²

Mazkur ko'rsatkich 2025-yil uchun belgilangan 29 foizlik maqsadli indikatordan yuqori bo'lib, 2026-yil uchun belgilangan 34 foizlik ko'rsatkichga yaqinlashganini ko'rsatadi. Bu kasbiy ta'lim tizimi 9-sinf bitiruvchilari uchun muhim ta'lim trayektoriyasiga aylanib borayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, qabul jarayonida asosiy talab oqimi aynan 9-sinf bitiruvchilari hisobiga shakllanmoqda.

2019–2024-yillarda 11-sinf bitiruvchilari soni o'rtacha 393 ming nafarni tashkil etgan. 2025/2026 o'quv yilida mazkur toifadan 87 905 nafar o'quvchi texnikumlarga qabul qilingan bo'lib, bu o'rtacha bitiruvchilar soniga nisbatan 22,4 foiz qamrovni tashkil etadi.³

²<https://siat.stat.uz/reports-filed/3494/table-data>


³<https://siat.stat.uz/reports-filed/777/table-data>

9-sinf bitiruvchilari bilan taqqoslaganda, 11-sinf bitiruvchilarining kasbiy ta'limni tanlash darajasi pastroq shakllangan. Bu esa texnikumlarga qabulning asosiy qismi umumiy o'rta ta'limning 9-sinfidan keyin amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, texnikumlarga qabul qilingan o'quvchilarning qariyb uchdan ikki qismi 9-sinf bitiruvchilari hisobiga to'g'ri kelmoqda.

Bu kasbiy ta'lim tizimida erta kasbiy yo'naltirishning ahamiyati ortib borayotganini hamda mazkur tizim yoshlarni kasbga yo'naltirishning muhim mexanizmlaridan biriga aylanayotganini ko'rsatadi.

Bitiruvchilarning kasbiy ta'lim bilan qamrovi



07 Ta'lim shakllari kesimida tahlil

Qabul parametrlarini ta'lim shakllari kesimida tahlil qilish kasbiy ta'lim tizimida o'quvchilar ehtiyojlari, ta'lim jarayonlarining moslashuvchanligi hamda turli ta'lim shakllarining amaldagi samaradorligini baholash imkonini beradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, jami qabul qilingan o'quvchilarning 83,3 foizi kunduzgi ta'lim shakli hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, mazkur shakl bo'yicha qabul rejasini 92,1 foizga bajarilgan. Bu kasbiy ta'lim tizimida kunduzgi ta'lim shakli asosiy ta'lim trayektoriyasi sifatida saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Dual ta'lim shakli bo'yicha 41 080 nafar o'quvchi qabul qilingan bo'lib, uning jami qabuldagi ulushi 16,5 foizni tashkil etgan. Mazkur shakl bo'yicha qabul rejasining bajarilishi 68,8 foizni tashkil etib, dual ta'limni kengaytirish bo'yicha mavjud salohiyat to'liq ishga solinmaganini ko'rsatadi.

Kechki ta'lim shakli ulushi esa jami qabulning 0,2 foizini tashkil etgan bo'lib, qabul rejasini 25,2 foizga bajarilgan. Bu mazkur ta'lim shakliga bo'lgan talab cheklanganligini yoki uni tashkil etish imkoniyatlari hududlar va ta'lim yo'nalishlari kesimida bir xil shakllanmaganini ko'rsatadi.

Jami qabul qilinganlar

249 130




Tasdiqlangan qabul rejasini

287 301




Umumiy bajarilish

86,7%



Qabul rejasini bajarilishi



Kasbiy ta'lim tizimida asosiy talab kunduzgi ta'lim shakli hisobiga shakllanmoqda. Shu bilan birga, dual ta'lim ulushi o'sib borayotgan bo'lsada, belgilangan qabul parametrlariga to'liq erishilmagan. Kechki ta'lim shakliga bo'lgan talab esa nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda.

08 Qabul parametrlarining davlat granti va kontrakt asosidagi tahlili

Qabul parametrlarini moliyalashtirish manbalari kesimida tahlil qilish kasbiy ta'lim tizimida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasi hamda aholining ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabini baholash imkonini beradi.

Tahlilga ko'ra, 2025/2026 o'quv yilida texnikumlarga jami 249 130 nafar o'quvchi qabul qilingan bo'lib, shundan 206 761 nafari davlat granti asosida, 42 369 nafari esa kontrakt asosida qabul qilingan.

Natijada davlat granti asosidagi qabul ulushi 83,0 foizni, kontrakt asosidagi qabul ulushi esa 17,0 foizni tashkil etgan.

Mazkur parametrlar kasbiy ta'lim tizimida davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash yuqori darajada saqlanayotganini ko'rsatadi. Bu esa aholi uchun kasbiy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiyot tarmoqlarining kadrlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashga ko'maklashmoqda.

Davlat granti va kontrakt asosidagi qabul ko'rsatkichlari

Jami qabul qilinganlar

249 130




Kontrakt asosida qabul qilinganlar

42 369




Davlat granti asosida qabul qilinganlar


206 761



Davlat granti qabulining asosiy qismi



Kontrakt qabulining asosiy qismi



Tahlil jarayonida kontrakt asosidagi qabulning asosiy qismi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasida jamlangani aniqlandi.

Xususan, mazkur sohada 27 473 nafar o'quvchi kontrakt asosida qabul qilingan bo'lib, bu umumiy kontrakt qabulning 64,8 foizini tashkil etgan. Bu tibbiyot va jamoat salomatligi bilan bog'liq bilim sohasiga talab yuqori shakllanganini ko'rsatadi.

Davlat granti asosidagi qabul esa nisbatan kengroq sohalar kesimida taqsimlangan. Xususan, muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalarida 109 528 nafar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida 40 536 nafar, qishloq, o'rmon, baliqchilik xo'jaligi va veterinariya sohasida 26 610 nafar hamda xizmatlar sohasida 17 410 nafar o'quvchi davlat granti asosida qabul qilingan.

Mazkur holat davlat tomonidan iqtisodiyotning real sektori uchun zarur bo'lgan texnik, ishlab chiqarish va agrar yo'nalishlarda kadrlar tayyorlashga ustuvorlik berilayotganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, qabul parametrlari davlat granti va kontrakt parametrlarining turli sohalar bo'yicha har xil shakllanganini ko'rsatmoqda. Bu esa davlat buyurtmalarini shakllantirishda mehnat bozori ehtiyojlari, sohalarning strategik ahamiyati va ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

09 Qabul parametrlari bo'yicha asosiy tendensiyalar

Amalga oshirilgan tahlillar 2025/2026 o'quv yilida kasbiy ta'lim tizimida qabul ko'rsatkichlarida ijobiy dinamika kuzatilganini ko'rsatdi.

Xususan, qabul rejasining bajarilish darajasi 2024/2025 o'quv yilidagi 76 foizdan 86 foizgacha oshgan, 9-sinf bitiruvchilarini kasbiy ta'lim bilan qamrab olish darajasi esa 32,2 foizni tashkil etib, belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga yaqinlashgan.

Shu bilan birga, tahlil natijalari qabul parametrlari ta'lim yo'nalishlari, sohalar, hududlar va ta'lim shakllari kesimida bir xil shakllanmaganini ko'rsatmoqda.

Xususan, qabulning 49 foizi atigi 7 ta kasb va mutaxassislik hissasiga, 83,8 foizi esa 5 ta ta'lim sohasi hissasiga to'g'ri kelgan. Bu abituriyentlar talabi ayrim yo'nalishlarda yuqori darajada konsentratsiyalashayotganini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida qabul rejasining bajarilishi 65 foizdan 100 foizgacha bo'lgan oraliqda shakllangan bo'lib, hududlar o'rtasida 35 foizgacha farq mavjudligi aniqlandi.

Shuningdek, ayrim kasb va mutaxassisliklar bo'yicha qabul parametrlari belgilangan kvotalardan bir necha barobar yuqori shakllangan bo'lsa, boshqa yo'nalishlarda qabul rejasi to'liq bajarilmagan.

Tahlil natijalari dual ta'lim bo'yicha qabul parametrlarining 68,8 foizga bajarilganini ko'rsatdi. Bu mazkur ta'lim shaklini rivojlantirish bo'yicha belgilangan maqsadlarga erishish uchun ish beruvchilar ishtirokini kengaytirish va amaliy ta'lim imkoniyatlarini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, qabul parametrlarini shakllantirishda mehnat bozori ehtiyojlari, hududiy demografik tendensiyalar, abituriyentlar tanlovi hamda bitiruvchilar bandligi to'g'risidagi ma'lumotlarni kompleks hisobga olish qabul jarayonlarining samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Amalga oshirilgan tahlil natijalari asosida kasbiy ta'lim tizimida qabul parametrlarini shakllantirish va boshqarish samaradorligini yanada oshirish maqsadida bir qator takliflar ishlab chiqildi.

01 Qabul parametrlarini mehnat bozori ehtiyojlari asosida shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish

Qabul parametrlarini shakllantirishda hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarining kadrlarga bo'lgan real ehtiyojlari asosiy mezonlardan biri bo'lishi lozim.

Shu maqsadda har bir hudud kesimida mehnat bozori holati, yangi investitsiya loyihalari, tashkil etilayotgan ish o'rinlari hamda ish beruvchilarning kadrlarga bo'lgan ehtiyojini muntazam tahlil qilish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

Qabul parametrlarini shakllantirish jarayoniga ish beruvchilarni keng jalb qilish zarur. Bunda yirik korxonalar, xususiy sektor va tarmoq tashkilotlari tomonidan bildirilgan kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar davlat buyurtmalarini shakllantirish jarayonida inobatga olinishi lozim.

Tahlil natijalari ayrim kasb va mutaxassisliklarda qabul ko'rsatkichlari belgilangan kvotalardan yuqori shakllanganini, boshqa qator kasb va mutaxassisliklarda esa qabul rejalari to'liq bajarilmaganini ko'rsatdi.

Shu munosabat bilan talab yuqori bo'lgan kasb va mutaxassisliklar bo'yicha qabul parametrlarini bosqichma-bosqich oshirish, talab past shakllangan kasb va mutaxassisliklarda esa qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, qabul parametrlarini shakllantirishda bitiruvchilarning bandlik ko'rsatkichlari, mehnat bozori prognozlari hamda hududiy rivojlanish dasturlari bilan bog'liq ma'lumotlardan keng foydalanish zarur.

Natijada davlat buyurtmalari, iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlari, texnikumlarning mavjud moddiy-texnik bazasi va mutaxassis pedagoglar bilan ta'minlanganlik darajasi inobatga olinib, qabul parametrlari hamda texnikum faoliyati o'rtasidagi muvofiqlikni yanada oshirish imkoniyati yaratiladi.

02 Qabul parametrlarini prognozlash va raqamli tahlil qilish mexanizmlarini rivojlantirish

Qabul parametrlarini shakllantirishda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini keng joriy etish maqsadga muvofiq.

Buning uchun qabul ko'rsatkichlari, bitiruvchilar bandligi, mehnat bozori ehtiyojlari, demografik tendensiyalar hamda hududiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini o'zaro integratsiya qiluvchi yagona tahliliy axborot tizimini shakllantirish zarur.

Mazkur tizim orqali iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar kesimida kadrlarga bo'lgan ehtiyojni muntazam monitoring qilish, qabul parametrlarining bajarilishini baholash hamda kelgusi yillar uchun qabul ko'rsatkichlarini prognoz qilish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, qabul parametrlarini shakllantirish jarayonida davlat organlarining axborot tizimlari, mehnat bozori ma'lumotlari va ta'lim sohasidagi statistik ko'rsatkichlardan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq.

Natijada qabul parametrlarini shakllantirish jarayonining aniqligi oshadi, davlat buyurtmalarini iqtisodiyot ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirish imkoniyatlari kengayadi hamda qaror qabul qilish jarayonlarining samaradorligi ta'minlanadi.

03 Ta'lim yo'nalishlari va ta'lim shakllarini maqbullashtirish

Tahlil natijalari qabul parametrlarining ta'lim yo'nalishlari kesimida bir xil shakllanmaganini ko'rsatdi.

Xususan, ayrim kasb va mutaxassisliklar bo'yicha qabul parametrlari belgilangan kvotalardan bir necha barobar yuqori shakllangan bo'lsa, boshqa qator kasb va mutaxassisliklarda qabul rejalari to'liq bajarilmagan.

Shu munosabat bilan kasb va mutaxassisliklar ro'yxatini muntazam qayta ko'rib chiqish, mehnat bozori ehtiyojlariga javob bermaydigan yoki talab past shakllanganlarini maqbullashtirish maqsadga muvofiq.

Bunda qabul ko'rsatkichlari, bitiruvchilar bandligi, ish beruvchilar fikri, hududiy kadrlarga bo'lgan real ehtiyoji hamda ta'lim dasturlarining iqtisodiyot tarmoqlari uchun ahamiyati asosiy baholash mezonlari sifatida qo'llanilishi lozim.

Shuningdek, texnikumlarda dual ta'lim, qisqa muddatli kasbiy tayyorgarlik dasturlari va amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim shakllari ulushini bosqichma-bosqich kengaytirish maqsadga muvofiq.

Natijada kasb va mutaxassisliklar tarkibini iqtisodiyot ehtiyojlari bilan yanada muvofiqlashtirish hamda qabul parametrlaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

04 Milliy reyting natijalaridan qabul parametrlarini shakllantirishda foydalanish

Qabul parametrlarini shakllantirish jarayonida texnikumlarning milliy reyting natijalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Milliy reyting ta'lim tashkilotlarining faoliyatini qabul ko'rsatkichlari, ta'lim sifati, bitiruvchilar bandligi, ish beruvchilar bilan hamkorlik va boshqa muhim indikatorlar asosida kompleks baholash imkonini beradi.

Shu munosabat bilan milliy reyting natijalaridan davlat buyurtmalarini shakllantirish, qabul parametrlarini taqsimlash hamda texnikumlar faoliyati samaradorligini baholash jarayonlarida qo'shimcha tahliliy manba sifatida foydalanish maqsadga muvofiq.

Ayniqsa, qabul parametrlari, bitiruvchilar bandligi va mehnat bozori ehtiyojlariga moslik bo'yicha yuqori natijalar qayd etgan texnikumlar tajribasini o'rganish hamda ularning samarali amaliyotlarini boshqa ta'lim tashkilotlarida joriy etish muhim ahamiyat kasbetadi.

Shu bilan birga, past natija ko'rsatgan texnikumlar bo'yicha qabul parametrlari, ta'lim dasturlari hamda ish beruvchilar bilan hamkorlik mexanizmlarini qo'shimcha tahlil qilish va takomillashtirish choralarini ko'rish maqsadga muvofiq.

Natijada qabul parametrlarini shakllantirish jarayonining shaffofligi va asoslanganligi oshadi hamda davlat buyurtmalarini ta'lim sifati va mehnat bozori ehtiyojlari bilan yanada muvofiqlashtirish imkoniyati yaratiladi.

XULOSA

Tahlillar texnikumda qabul parametrlarini shakllantirish jarayoni takomillashayotgani va qamrov kengayib borayotganini ko'rsatdi. Biroq mehnat bozori ehtiyojlari, hududiy rivojlanish, kasb va mutaxassisliklar jozibadorligi va texnikumlar salohiyati o'rtasida muayyan nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda.

Birinchidan, qabul parametrlari tahlili ayrim kasb va mutaxassisliklarida talab yuqori darajada jamlanayotganini, boshqa qator kasb va mutaxassisliklarda esa qabul parametrlari to'liq o'zlashtirilmayotganini ko'rsatdi. Xususan, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Muhandislik ishi, Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari, Sog'liqni saqlash, Qishloq xo'jaligi va Xizmat ko'rsatish ta'lim sohasidagi kasb va mutaxassisliklarga talab yuqori shakllanayotgan bo'lsa, ayrim kasb va mutaxassisliklarda qabul ko'rsatkichlarining juda past yoki 0 foiz darajasida qolib ketayotgani qabul parametrlarini mehnat bozori ehtiyojlari asosida yanada maqbul shakllantirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Ikkinchidan, hududlar kesimidagi tahlillar texnikumlar o'rtasida institutsional salohiyat, moddiy-texnik baza, ish beruvchilar bilan integratsiya va ta'lim dasturlarining mehnat bozoriga mosligi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Ayrim texnikumlarda qabul rejasi to'liq bajarilgan bo'lsa, boshqa ta'lim tashkilotlarida qabul ko'rsatkichlarining juda past shakllangani hududiy tahlil va prognoz mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Uchinchidan, dual ta'lim bo'yicha qabul ko'rsatkichlari mazkur yo'nalishda ijobiy tendensiyalar shakllanayotganini ko'rsatsa-da, amaldagi ko'rsatkichlar maqsadli indikatorlarga to'liq yetmaganini namoyon etdi. Bu esa ish beruvchilar ishtirokini kengaytirish, amaliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish hamda texnikumlar va iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, xalqaro tajribalar tahlili rivojlangan davlatlarda qabul parametrlarini shakllantirish jarayoni mehnat bozorini prognoz qilish, kadrlar ehtiyojini rejalashtirish, hududiy mehnat bozori tahlili va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlari orqali amalga oshirilishini ko'rsatdi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda ham qabul parametrlarini shakllantirish jarayonini raqamlashtirish, prognoz modellarini joriy etish va ish beruvchilar ishtirokini kuchaytirish dolzarb hisoblanadi.

Qabul parametrlarini takomillashtirish, davlat buyurtmalarini iqtisodiyot ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirish va texnikumlarning samaradorligini oshirish kelgusida raqobatbardosh o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlash hamda mehnat bozorida barqaror kadrlar ta'minotini shakllantirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

2025/2026 o'quv yili uchun qabul parametrlarining bajarilish darajasi bo'yicha texnikumlar reytingi

1	Shofirkon tuman 1-son texnikumi 📍 Buxoro viloyati	Qabul 980	Reja 780	Ulush (foiz) 100 ↑	Ball 4,00
2	G'ijduvon tuman 2-son texnikumi 📍 Buxoro viloyati	Qabul 562	Reja 420	Ulush (foiz) 100 ↑	Ball 4,00
3	Yangiyo'l tuman 3-son texnikumi 📍 Toshkent viloyati	Qabul 290	Reja 180	Ulush (foiz) 100 ↑	Ball 4,00
4	Qarshi Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi 📍 Qashqadaryo viloyati	Qabul 483	Reja 480	Ulush (foiz) 100 ↑	Ball 4,00
5	Qo'rg'ontepa Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi 📍 Andijon viloyati	Qabul 424	Reja 420	Ulush (foiz) 100 ↑	Ball 4,00
6	Pastdarg'om Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi 📍 Samarqand viloyati	Qabul 632	Reja 630	Ulush (foiz) 100 ↑	Ball 4,00
7	Qo'qon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi 📍 Farg'ona viloyati	Qabul 1020	Reja 1020	Ulush (foiz) 100	Ball 4,00
8	Jondor tuman 2-son texnikumi 📍 Buxoro viloyati	Qabul 584	Reja 450	Ulush (foiz) 100 ↑	Ball 4,00
9	Denov tuman 1-son texnikumi 📍 Surxondaryo viloyati	Qabul 461	Reja 240	Ulush (foiz) 100 ↑	Ball 4,00
10	Paxtaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi 📍 Andijon viloyati	Qabul 456	Reja 450	Ulush (foiz) 100 ↑	Ball 4,00
11	Muborak Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi 📍 Qashqadaryo viloyati	Qabul 365	Reja 360	Ulush (foiz) 100 ↑	Ball 4,00
12	Shahrisabz Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi 📍 Qashqadaryo viloyati	Qabul 364	Reja 360	Ulush (foiz) 100 ↑	Ball 4,00
13	Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi 📍 Samarqand viloyati	Qabul 540	Reja 540	Ulush (foiz) 100	Ball 4,00
14	So'zangaron Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi 📍 Samarqand viloyati	Qabul 630	Reja 630	Ulush (foiz) 100	Ball 4,00
15	Urgut Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi 📍 Samarqand viloyati	Qabul 242	Reja 240	Ulush (foiz) 100 ↑	Ball 4,00
16	Denov Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi 📍 Surxondaryo viloyati	Qabul 458	Reja 450	Ulush (foiz) 100 ↑	Ball 4,00

17	Farg'ona shahar Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Farg'ona viloyati	Qabul 662	Reja 660	Ulush (foiz) 100 ↑	Ball 4,00
18	Baliqchi Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Andijon viloyati	Qabul 420	Reja 420	Ulush (foiz) 100	Ball 4,00
19	1-son Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Toshkent shahri	Qabul 634	Reja 630	Ulush (foiz) 100 ↑	Ball 4,00
20	G'ijduvon tuman 4-son texnikumi	Buxoro viloyati	Qabul 788	Reja 750	Ulush (foiz) 100 ↑	Ball 3,98
21	Termiz Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Surxondaryo viloyati	Qabul 360	Reja 360	Ulush (foiz) 99	Ball 3,97
22	Dang'ara tuman 2-son texnikumi	Farg'ona viloyati	Qabul 756	Reja 420	Ulush (foiz) 99	Ball 3,97
23	Kosonsoy tuman 2-son texnikumi	Namangan viloyati	Qabul 521	Reja 390	Ulush (foiz) 99	Ball 3,97
24	Narpay tuman 2-son texnikumi	Samarqand viloyati	Qabul 702	Reja 450	Ulush (foiz) 99	Ball 3,95
25	G'ijduvon tuman 3-son texnikumi	Buxoro viloyati	Qabul 379	Reja 330	Ulush (foiz) 99	Ball 3,95
26	Ishtixon tuman 2-son texnikumi	Samarqand viloyati	Qabul 1084	Reja 480	Ulush (foiz) 99	Ball 3,95
27	Andijon shahar 5-son texnikumi	Andijon viloyati	Qabul 475	Reja 330	Ulush (foiz) 99	Ball 3,94
28	Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Andijon viloyati	Qabul 418	Reja 420	Ulush (foiz) 99	Ball 3,94
29	Qo'shtepa tuman 2-son texnikumi	Farg'ona viloyati	Qabul 271	Reja 240	Ulush (foiz) 98	Ball 3,93
30	G'ijduvon tuman 1-son texnikumi	Buxoro viloyati	Qabul 544	Reja 390	Ulush (foiz) 98	Ball 3,93
31	Qashqadaryo yuridik texnikumi	Qashqadaryo viloyati	Qabul 117	Reja 120	Ulush (foiz) 98	Ball 3,93
32	Ishtixon tuman 1-son texnikumi	Samarqand viloyati	Qabul 605	Reja 360	Ulush (foiz) 98	Ball 3,93

33	Jizzax Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Jizzax viloyati	Qabul 765	Reja 780	Ulush (foiz) 98	Ball 3,92
34	Furqat tuman texnikumi	Farg'ona viloyati	Qabul 508	Reja 420	Ulush (foiz) 98	Ball 3,91
35	Norin tuman 2-son texnikumi	Namangan viloyati	Qabul 795	Reja 420	Ulush (foiz) 97	Ball 3,89
36	Sho'rchi Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Surxondaryo viloyati	Qabul 543	Reja 540	Ulush (foiz) 97	Ball 3,88
37	Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Samarqand viloyati	Qabul 736	Reja 720	Ulush (foiz) 97	Ball 3,88
38	Yangiyer Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Sirdaryo viloyati	Qabul 353	Reja 360	Ulush (foiz) 96	Ball 3,84
39	Asaka Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Andijon viloyati	Qabul 438	Reja 450	Ulush (foiz) 96	Ball 3,84
40	Dang'ara tuman 1-son texnikumi	Farg'ona viloyati	Qabul 871	Reja 600	Ulush (foiz) 96	Ball 3,83
41	Muborak tuman texnikumi	Qashqadaryo viloyati	Qabul 935	Reja 660	Ulush (foiz) 96	Ball 3,83
42	Qamashi tuman 3-son texnikumi	Qashqadaryo viloyati	Qabul 537	Reja 300	Ulush (foiz) 96	Ball 3,82
43	Namangan shahar 1-son texnikumi	Namangan viloyati	Qabul 1069	Reja 540	Ulush (foiz) 96	Ball 3,82
44	Namangan shahar 2-son texnikumi	Namangan viloyati	Qabul 1245	Reja 540	Ulush (foiz) 96	Ball 3,82
45	Romitan tuman 2-son texnikumi	Buxoro viloyati	Qabul 387	Reja 330	Ulush (foiz) 95	Ball 3,81
46	Norin Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Namangan viloyati	Qabul 497	Reja 510	Ulush (foiz) 95	Ball 3,80
47	Dehqonobod tuman 1-son texnikumi	Qashqadaryo viloyati	Qabul 410	Reja 420	Ulush (foiz) 95	Ball 3,80
48	Mirzacho'l tuman 2-son texnikumi	Jizzax viloyati	Qabul 392	Reja 360	Ulush (foiz) 95	Ball 3,79

49	Sariosiyo Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Surxondaryo viloyati	Qabul 466	Reja 480	Ulush (foiz) 95	Ball 3,79
50	Pastdarg'om tuman 2-son texnikumi	Samarqand viloyati	Qabul 350	Reja 270	Ulush (foiz) 95	Ball 3,79
51	Sho'rchi tuman 3-son texnikumi	Surxondaryo viloyati	Qabul 309	Reja 180	Ulush (foiz) 95	Ball 3,79
52	Beshariq tuman 2-son texnikumi	Farg'ona viloyati	Qabul 924	Reja 450	Ulush (foiz) 95	Ball 3,78
53	Sayxunobod tuman 2-son texnikumi	Sirdaryo viloyati	Qabul 348	Reja 270	Ulush (foiz) 94	Ball 3,78
54	Qo'qon shahar 2-son texnikumi	Farg'ona viloyati	Qabul 398	Reja 390	Ulush (foiz) 94	Ball 3,76
55	Norin tuman 1-son texnikumi	Namangan viloyati	Qabul 634	Reja 540	Ulush (foiz) 95	Ball 3,76
56	G'ijduvon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Buxoro viloyati	Qabul 442	Reja 450	Ulush (foiz) 94	Ball 3,76
57	G'allaorol Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Jizzax viloyati	Qabul 409	Reja 420	Ulush (foiz) 94	Ball 3,76
58	Uchko'prik tuman 1-son texnikumi	Farg'ona viloyati	Qabul 929	Reja 450	Ulush (foiz) 94	Ball 3,74
59	Chiroqchi tuman 2-son texnikumi	Qashqadaryo viloyati	Qabul 726	Reja 600	Ulush (foiz) 93	Ball 3,72
60	Rishton Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Farg'ona viloyati	Qabul 640	Reja 660	Ulush (foiz) 93	Ball 3,72
61	Zomin Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Jizzax viloyati	Qabul 636	Reja 660	Ulush (foiz) 93	Ball 3,71
62	Asaka tuman 2-son texnikumi	Andijon viloyati	Qabul 524	Reja 420	Ulush (foiz) 93	Ball 3,71
63	Sharof Rashidov tuman 3-son texnikumi	Jizzax viloyati	Qabul 496	Reja 420	Ulush (foiz) 92	Ball 3,70
64	Olot tuman texnikumi	Buxoro viloyati	Qabul 618	Reja 510	Ulush (foiz) 92	Ball 3,70

65	Guliston Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Sirdaryo viloyati	Qabul 394	Reja 420	Ulush (foiz) 92	Ball 3,69
66	Chortoq Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Namangan viloyati	Qabul 573	Reja 600	Ulush (foiz) 92	Ball 3,69
67	To'raqo'rg'on tuman 1-son texnikumi	Namangan viloyati	Qabul 466	Reja 300	Ulush (foiz) 92	Ball 3,67
68	Farg'ona yuridik texnikumi	Farg'ona viloyati	Qabul 268	Reja 300	Ulush (foiz) 91	Ball 3,66
69	Kosonsoy tuman 1-son texnikumi	Namangan viloyati	Qabul 659	Reja 420	Ulush (foiz) 91	Ball 3,65
70	Sherobod tuman 2-son texnikumi	Surxondaryo viloyati	Qabul 348	Reja 180	Ulush (foiz) 91	Ball 3,64
71	Buvayda Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Farg'ona viloyati	Qabul 344	Reja 360	Ulush (foiz) 91	Ball 3,64
72	Kosonsoy tuman 3-son texnikumi	Namangan viloyati	Qabul 291	Reja 270	Ulush (foiz) 91	Ball 3,64
73	Shofirkon tuman 2-son texnikumi	Buxoro viloyati	Qabul 679	Reja 660	Ulush (foiz) 91	Ball 3,63
74	Samarqand imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumi	Samarqand viloyati	Qabul 129	Reja 120	Ulush (foiz) 91	Ball 3,63
75	2-son Namangan Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Namangan viloyati	Qabul 526	Reja 540	Ulush (foiz) 90	Ball 3,62
76	Jondor tuman 1-son texnikumi	Buxoro viloyati	Qabul 728	Reja 450	Ulush (foiz) 90	Ball 3,61
77	Zomin turizm va madaniy meros texnikumi	Jizzax viloyati	Qabul 553	Reja 480	Ulush (foiz) 90	Ball 3,60
78	Asaka tuman 1-son texnikumi	Andijon viloyati	Qabul 470	Reja 450	Ulush (foiz) 90	Ball 3,59
79	Narpay tuman 3-son texnikumi	Samarqand viloyati	Qabul 1037	Reja 630	Ulush (foiz) 90	Ball 3,58
80	Shahrisabz shahar 2-son texnikumi	Qashqadaryo viloyati	Qabul 384	Reja 270	Ulush (foiz) 89	Ball 3,57

81	Shahrisabz turizm va madaniy meros texnikumi 📍 Qashqadaryo viloyati	Qabul 402	Reja 690	Ulush (foiz) 47	Ball 3,57
82	Farg'ona tuman 3-son texnikumi 📍 Farg'ona viloyati	Qabul 673	Reja 510	Ulush (foiz) 89	Ball 3,56
83	Olmaliq shahar 2-son texnikumi 📍 Toshkent viloyati	Qabul 486	Reja 480	Ulush (foiz) 89	Ball 3,56
84	Beshariq tuman 1-son texnikumi 📍 Farg'ona viloyati	Qabul 712	Reja 480	Ulush (foiz) 89	Ball 3,55
85	Urgut tuman 2-son texnikumi 📍 Samarqand viloyati	Qabul 387	Reja 300	Ulush (foiz) 89	Ball 3,55
86	Sergeli Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi 📍 Toshkent shahri	Qabul 775	Reja 840	Ulush (foiz) 89	Ball 3,55
87	Xovos tuman 1-son texnikumi 📍 Sirdaryo viloyati	Qabul 272	Reja 300	Ulush (foiz) 89	Ball 3,54
88	1-son Namangan Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi 📍 Namangan viloyati	Qabul 673	Reja 720	Ulush (foiz) 88	Ball 3,54
89	Zarbdor tuman 2-son texnikumi 📍 Jizzax viloyati	Qabul 263	Reja 240	Ulush (foiz) 88	Ball 3,53
90	Yangiyo'l Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi 📍 Toshkent viloyati	Qabul 426	Reja 480	Ulush (foiz) 88	Ball 3,53
91	Kattaqo'rg'on Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi 📍 Samarqand viloyati	Qabul 539	Reja 570	Ulush (foiz) 88	Ball 3,53
92	Koson tuman 1-son texnikumi 📍 Qashqadaryo viloyati	Qabul 634	Reja 542	Ulush (foiz) 88	Ball 3,53
93	Sherobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi 📍 Surxondaryo viloyati	Qabul 437	Reja 480	Ulush (foiz) 88	Ball 3,52
94	Jarqo'rg'on tuman 1-son texnikumi 📍 Surxondaryo viloyati	Qabul 476	Reja 360	Ulush (foiz) 88	Ball 3,52
95	Vobkent tuman 2-son texnikumi 📍 Buxoro viloyati	Qabul 445	Reja 360	Ulush (foiz) 88	Ball 3,51
96	Buxoro turizm va madaniy meros texnikumi 📍 Buxoro viloyati	Qabul 591	Reja 570	Ulush (foiz) 88	Ball 3,51

97	Toshkent raqamli iqtisodiyot va servis texnikumi					Ball 3,50
	📍 Toshkent viloyati	Qabul 250	Reja 240	Ulush (foiz) 88		
98	Yangibozor tuman 2-son texnikumi					Ball 3,50
	📍 Xorazm viloyati	Qabul 356	Reja 360	Ulush (foiz) 87		
99	Yangiyo'l tuman 2-son texnikumi					Ball 3,49
	📍 Toshkent viloyati	Qabul 461	Reja 360	Ulush (foiz) 87		
100	Narpay tuman 1-son texnikumi					Ball 3,48
	📍 Samarqand viloyati	Qabul 645	Reja 630	Ulush (foiz) 87		
101	Nurobod tuman 2-son texnikumi					Ball 3,48
	📍 Samarqand viloyati	Qabul 287	Reja 240	Ulush (foiz) 87		
102	Asaka tuman 3-son texnikumi					Ball 3,48
	📍 Andijon viloyati	Qabul 542	Reja 420	Ulush (foiz) 87		
103	Kosonsoy Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi					Ball 3,47
	📍 Namangan viloyati	Qabul 582	Reja 660	Ulush (foiz) 87		
104	Buvayda tuman 1-son texnikumi					Ball 3,47
	📍 Farg'ona viloyati	Qabul 620	Reja 480	Ulush (foiz) 87		
105	2-son Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi					Ball 3,46
	📍 Farg'ona viloyati	Qabul 470	Reja 510	Ulush (foiz) 87		
106	Marhamat tuman 1-son texnikumi					Ball 3,46
	📍 Andijon viloyati	Qabul 364	Reja 390	Ulush (foiz) 87		
107	Urgut tuman 3-son texnikumi					Ball 3,45
	📍 Samarqand viloyati	Qabul 336	Reja 300	Ulush (foiz) 86		
108	Andijon shahar 4-son texnikumi					Ball 3,44
	📍 Andijon viloyati	Qabul 733	Reja 420	Ulush (foiz) 86		
109	Bulung'ur tuman 1-son texnikumi					Ball 3,44
	📍 Samarqand viloyati	Qabul 457	Reja 480	Ulush (foiz) 86		
110	Uchqo'rg'on tuman 3-son texnikumi					Ball 3,44
	📍 Namangan viloyati	Qabul 527	Reja 600	Ulush (foiz) 86		
111	Uychi tuman 2-son texnikumi					Ball 3,44
	📍 Namangan viloyati	Qabul 467	Reja 390	Ulush (foiz) 86		
112	Buxoro tuman 1-son texnikumi					Ball 3,43
	📍 Buxoro viloyati	Qabul 440	Reja 360	Ulush (foiz) 86		

113	G'allaorol tuman 1-son texnikumi	Jizzax viloyati	Qabul 414	Reja 420	Ulush (foiz) 86	Ball 3,43
114	Zarbdor tuman 1-son texnikumi	Jizzax viloyati	Qabul 363	Reja 390	Ulush (foiz) 85	Ball 3,39
115	Go'rg'ontepa tuman 1-son texnikumi	Andijon viloyati	Qabul 402	Reja 300	Ulush (foiz) 85	Ball 3,39
116	Oqdaryo tuman 1-son texnikumi	Samarqand viloyati	Qabul 447	Reja 330	Ulush (foiz) 85	Ball 3,39
117	1-son Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Farg'ona viloyati	Qabul 838	Reja 900	Ulush (foiz) 84	Ball 3,37
118	Oqqo'rg'on tuman 2-son texnikumi	Toshkent viloyati	Qabul 213	Reja 240	Ulush (foiz) 84	Ball 3,37
119	O'zbekiston tuman 2-son texnikumi	Farg'ona viloyati	Qabul 516	Reja 450	Ulush (foiz) 84	Ball 3,37
120	Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Navoiy viloyati	Qabul 578	Reja 634	Ulush (foiz) 84	Ball 3,36
121	Go'qon shahar 5-son texnikumi	Farg'ona viloyati	Qabul 820	Reja 540	Ulush (foiz) 84	Ball 3,35
122	Xovos tuman 2-son texnikumi	Sirdaryo viloyati	Qabul 261	Reja 240	Ulush (foiz) 84	Ball 3,35
123	Bekobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Toshkent viloyati	Qabul 400	Reja 480	Ulush (foiz) 84	Ball 3,35
124	O'rta Chirchiq tuman 3-son texnikumi	Toshkent viloyati	Qabul 605	Reja 330	Ulush (foiz) 84	Ball 3,35
125	Paxtachi tuman 1-son texnikumi	Samarqand viloyati	Qabul 306	Reja 300	Ulush (foiz) 84	Ball 3,34
126	Sirdaryo tuman texnikumi	Sirdaryo viloyati	Qabul 484	Reja 540	Ulush (foiz) 83	Ball 3,34
127	Payariq tuman 3-son texnikumi	Samarqand viloyati	Qabul 312	Reja 270	Ulush (foiz) 83	Ball 3,33
128	Denov tuman 4-son texnikumi	Surxondaryo viloyati	Qabul 562	Reja 390	Ulush (foiz) 83	Ball 3,31

129	Uchko'prik tuman 2-son texnikumi	Farg'ona viloyati	Qabul 764	Reja 630	Ulush (foiz) 83	Ball 3,31
130	Yangiyo'l tuman 1-son texnikumi	Toshkent viloyati	Qabul 339	Reja 300	Ulush (foiz) 83	Ball 3,31
131	Chortoq tuman 2-son texnikumi	Namangan viloyati	Qabul 359	Reja 300	Ulush (foiz) 83	Ball 3,31
132	Toshloq tuman 2-son texnikumi	Farg'ona viloyati	Qabul 648	Reja 390	Ulush (foiz) 83	Ball 3,30
133	Yozyovon tuman 2-son texnikumi	Farg'ona viloyati	Qabul 444	Reja 360	Ulush (foiz) 82	Ball 3,30
134	Do'stlik Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Jizzax viloyati	Qabul 405	Reja 480	Ulush (foiz) 82	Ball 3,29
135	Dehqonobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Qashqadaryo viloyati	Qabul 335	Reja 360	Ulush (foiz) 82	Ball 3,29
136	Paxtachi tuman 2-son texnikumi	Samarqand viloyati	Qabul 297	Reja 300	Ulush (foiz) 82	Ball 3,28
